

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: O'quvchi-yoshlarga xulq, axloq va huquq tushunchalarining chuqur mazmun-mohiyatini hamda bu tushunchalarning inson jamiyat hayotidagi tutgan o'rni tahlil qilgan holda tushuntirish, ularda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish. O'z xatti-harakatlariga nisbatan javobgarlik hissini uyg'otish.

Aniq maqsadlar:

1. O'quvchilarga xulq, axloq va huquq tushunchalarini mazmun-mohiyatini o'rgatish.
2. O'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish.
3. Xulq va axloqning shaxsiy tanlovlarga bog'liqligini anglatgan holda o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini uyg'otish.

Asosiy g'oyalar: O'quvchi-yoshlarga xulq, axloq va huquq – insonning jamiyatdagi tutgan o'rni, munosabati va mas'uliyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy me'yorlar ekanligini anglab yetadi. Ushbu tushunchalar o'zaro bog'liq holda inson shaxsining tarbiyasi, ma'naviy kamoloti va huquqiy ongini shakllantirishi o'quvchilarga tushuntiriladi. Mavzuning asosiy g'oyasi – sog'lom jamiyat barpo etishda xulqiy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va huquqiy me'yorlarning uyg'unligini ta'minlash hamda har bir fuqaroning bu tamoyillarga rioya qilishi muhim ekanligini anglatishdir.

✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O'quvchi ushbu tushunchalarning mazmuni va bir-biridan farqli hamda umumiy jihatlarini tushunadi.
- Har bir tushuncha ijtimoiy hayotda qanday vazifa bajarishini tushunadi (masalan, xulq – odob; axloq – qadriyatlar; huquq – tartib).
- O'quvchi bu tushunchalar bir-birini to'ldirishi va uyg'unligi orqali sog'lom jamiyat shakllanishini anglaydi.

O'quvchi mavzu yuzasidan mustaqil fikr bildiradi, hayotiy misollar bilan dalillay oladi.

- O'zining kundalik xatti-harakatlarini ushbu tushunchalar asosida baholay boshlaydi.

1. Hissiy va qadriyatli yondashuvda:

- O'quvchi-yoshlarda insoniylik, halollik, odob, hurmat, rostgo'ylik kabi qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.
- O'quvchi jamiyatdagi tartib-intizom va qonun-qoidalarga nisbatan ijobiy qarashni shakllantiradi.
- Turli hayotiy vaziyatlarda axloqiy va huquqiy qadriyatlarga suyangan holda ongli qarorlar qabul qilishga intiladi.
- O'quvchi o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishni o'rganadi, atrofdagilarga nisbatan e'tiborli bo'ladi.

– Har bir insonning huquq va qadriyatlari hurmatga loyiq ekanligini chuqur his qiladi.

2. Amaliy ko‘nikmalarda:

– O‘quvchi kundalik hayotda odobli, halol, hurmatli muomala qilishni amalda qo‘llay oladi.

– Turli muammoli holatlarda qonuniy va axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lni tanlash ko‘nikmasi shakllanadi.

– O‘quvchi o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish, noto‘g‘ri bo‘lsa, uni to‘g‘rilashga harakat qiladi.

– O‘quvchi o‘z oilasi, do‘stlari va jamiyat a‘zolari bilan muloqotda axloqiy me‘yorlarga amal qiladi.

– O‘quvchi maktab, mahalla va jamoat joylarida belgilangan tartib-qoidalarga ongli ravishda amal qiladi.

– Shaxs sifatida jamiyat oldidagi burch va vazifalarini anglab, faol, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini egallaydi.

3. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

– O‘quvchi jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglab yetadi, boshqalarga nisbatan mas’uliyatli bo‘lish ko‘nikmasini egallaydi.

– O‘quvchi axloqiy va huquqiy me‘yorlarga asoslangan holda oilada, maktabda va jamoada to‘g‘ri munosabat o‘rnatishni o‘zlashtiradi.

– O‘quvchi o‘z huquq va majburiyatlarini anglaydi, halol, odobli, qonunlarga hurmat bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllanadi.

– O‘quvchi shaxsiy manfaatdan ko‘ra umumiy qadriyat va manfaatlarni qadrlashni, ijtimoiy birdamlikni anglaydi.

– Huquqiy bilimlarga ega bo‘lish orqali o‘quvchi jamiyatdagi tartib va qonunlarga ongli ravishda amal qilishni o‘rganadi.

 **Metapredmet:** bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

- **Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish:** O‘quvchi xulq, axloq va huquq tushunchalarini solishtirib, ularning jamiyatdagi o‘rnini tahlil qila oladi.

- **Muloqot va hamkorlik:** Guruhda fikr almashish, munozara qilish va boshqalar fikrini tinglash orqali ijtimoiy kommunikatsiya ko‘nikmalari rivojlanadi.

- **Shaxsiy mas’uliyat va o‘zini boshqarish:** O‘z xulq-atvorini nazorat qilish va axloqiy hamda huquqiy me‘yorlarga rioya qilishga mas’uliyat bilan yondashadi.

- **Muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish:** Hayotiy vaziyatlarda axloqiy va huquqiy qadriyatlarga asoslanib to‘g‘ri qarorlar qabul qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

- **Axborotni qidirish va uni baholash:** Ma’lumotlarni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va tegishli joyda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

 **Dars tuzilishi:**

1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi - o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. O'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga videorolik namoyish etiladi va videorolikdagi jarayon o'quvchilar o'rtasida muhokama qilinadi. Yomon xulq va uning oqibati yuridik jihatdan tahlil qilinadi. tomondan tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi. Donishmandning javobi rivoyati muhokama qilinadi hamda "Axloqiy intervyu", "Maqollar zanjiri" metodlari yordamida o'quvchilar topshiriqlarni bajaradilar.

3-qism. Yakuniy

Dars bo'yicha umumlashtiruvchi, yakunlovchi xulosa bayon etiladi. Hafta hikmati o'quvchilarga tushuntiriladi.